




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YALPI ICHKI MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRISH

2023- YIL


(Dastlabki ma'lumotlar)



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yalpi ichki mahsulot (YAIM) dinamikasi¹

2023- yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi YAIMi hajmi joriy narxlarda **1 066 569,0** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yil bilan taqqoslaganda **6,0 %** ga o'sdi. YAIM deflyator indeksi 2022- yildagi narxlarga nisbatan **112,2 %** ni tashkil etdi.

YAIMning deflyator indeksi dinamikasi, o'tgan yilga nisbatan % da




✓ **Yalpi ichki mahsulot (YAIM)** iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi va ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati orqali o'lchanadigan Milliy hisoblar tizimi (MHT)ning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir.

✓ **YAIM fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati)** doimiy narxlarda, ya'ni o'tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri YAIM (real YAIM)ni joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri YAIMiga nisbati orqali hisoblanadi.

¹Bu yerda va keyingi o'rinlarda 2019-2022- yillar uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIM dinamikasi, joriy narxlarda, trln. so'm



O'zbekiston Respublikasi YAIMi dinamikasi, mlrd. AQSH dollari




Ma'lumot uchun:
2023- yilda AQSH dollarining so'mga nisbatan o'rtacha rasmiy kursi 11 737,2 so'm, 2022- yilda 11 051,2 so'm, 2021- yilda 10 610,0 so'm, 2020- yilda 10 055,8 so'm, 2019- yilda 8 839,0 so'mga teng bo'lgan.

Joriy davrda o'rtacha almashuv kursi bo'yicha hisoblangan nominal YAIM hajmi 90 871,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

2023- yilda YAIM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i **1,0 f.p.**, sanoat tarmog'i – **1,5 f.p.**, qurilish tarmog'i – **0,4 f.p.** va xizmat ko'rsatish tarmog'i **2,6 f.p.** ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAIM **0,5 f.p.** ga ko'paydi.


YAIM o'sishida tarmoqlarning hissasi dinamikasi, jamiga nisbatan % da




Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi YAIM umumiy hajmining **94,5 %** ini tashkil etdi va **5,9 %** ga o'sdi (YAIM mutlaq o'sishiga ta'siri **5,5** foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YAIM tarkibidagi ulushi **5,5 %** ni tashkil etdi va 2022- yil bilan taqqoslaganda **7,4 %** ga o'sdi (YAIM mutlaq o'sishiga ta'siri – **0,5 f.p.**).

2023- yil yakunlariga ko'ra, YAIM tarkibida katta bo'lmagan o'zgarishlar kuzatildi. YAIM (YAQQ) tarkibida xizmatlar sohasining ulushi **41,6 %** dan **43,4 %** ga oshdi. Shu bilan birga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi **24,9 %** dan **24,3 %** ga, sanoatning ulushi **27,0 %** dan **26,1 %** ga, qurilish tarmog'ining ulushi **6,5 %** dan **6,2 %** ga kamaydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAIM tarkibi, jamiga nisbatan % da




Aholi jon boshiga YAIM hajmi, joriy narxlarda, ming so'm



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisining o'rtacha soni 2019- yilda **33 580,4** ming kishi, 2020- yilda **34 232,1** ming kishi, 2021- yilda **34 915,1** ming kishi, 2022- yilda **35 648,1** ming kishi va 2023- yilda **36 412,4** ming kishini tashkil etgan.

2023- yilda aholi jon boshiga hisoblangan YAIM hajmi joriy narxlarda **29 291,4** ming so'mni (yoki **2 495,6** AQSH dollari ekvivalentida) tashkil etdi.


Aholi jon boshiga YAIMning o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da



Yuqorida keltirilgan diagrammadan ko'rinib turganidek, 2023- yilda aholi jon boshiga YAIM hajmining real o'sishi 2022- yilga nisbatan **3,8 %** ni, 2019- yilga nisbatan esa **13,2 %** ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga YAIM (YAHM) muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining yalpi qo'shilgan qiymati



Hajmi, mlrd. so'm



O'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan % da

2019

2020

2021

2022


2023

2023- yil yakunlariga ko'ra, **qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida** 4,1 % (2022- yilda – 3,6 %, 2021- yilda – 4,0 %, 2020- yilda – 2,9 %, 2019- yilda – 3,1 %) darajasida ijobiy o'sish qayd etildi.


Ushbu ijobiy o'sish sur'atlari chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 3,7 % (2022- yilda – 3,3 % , 2021- yilda – 3,5 %, 2020- yilda – 2,1 % , 2019- yilda – 1,6 %)ga o'sishi bilan bog'liq.

Shu bilan birga, joriy davrda dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish esa 4,2 % (2022- yilda 3,8 %, 2021- yilda 4,3 %, 2020- yilda – 3,2 %, 2019- yilda – 4,8 %)ga o'sdi.

Sanoat tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati



Hajmi, mlrd. so'm



O'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan % da

2019

2020

2021


2022

2023


2023- yil yakunlariga ko'ra, **sanoat tarmog'i** qo'shilgan qiymatida **6,0 %** ga o'sish kuzatilgan.

Ushbu tarmoqdagi ijobiy dinamika, asosan tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog'ining qo'shilgan qiymati **1,0 %** ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning **6,7 %** ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tarmog'ining **9,7 %** ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish tarmog'ining **1,0 %** ga ijobiy o'sishi hisobiga ta'minlandi.


Sanoat tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati




Sanoat tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi, jamiga nisbatan % da



Qurilish tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati



Hajmi, mlrd. so'm



O'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan % da

2019

2020

2021

2022


2023

2022- yil bilan taqqoslaganda 2023- yilda **qurilish ishlari** hajmi **6,4 %** ga o'sdi. Jumladan, o'sish sur'atlari bino va inshootlar qurilishida **104,1 %** ni, fuqarolik obyektlari qurilishida **103,3 %** ni va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarida **135,7 %** ni tashkil etdi.


☑ **Ma'lumot uchun:** 2023- yilda qurilish ishlari hajmi **149 864,1 mlrd. so'mni** tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmida yirik qurilish tashkilotlarining ulushi **25,3 %**, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi **55,2 %**, jismoniy shaxslarning ulushi **19,5 %** ni tashkil etdi.

Qurilish tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati hajmi, mlrd. so'm


Binolar va inshootlar qurish








Fuqarolik obyektlarini qurish



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




Qurilish tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi, jamiga nisbatan % da




- Binolar va inshootlar qurish
- Fuqarolik obyektlarini qurish
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati




2023- yil yakunlariga ko‘ra, **xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati** hajmi **437 822,2** mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022- yilga nisbatan **6,8 %** ga o‘ydi. Shu jumladan, savdo xizmatlari **9,9 %** ga, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar **12,5 %** ga, tashish va saqlash xizmatlari **8,0 %** ga, axborot va aloqa xizmatlari **24,2 %** ga, boshqa xizmatlar **4,5 %** ga o‘ydi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi, jamiga nisbatan % da




Savdo tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati




Hajmi, mlrd. so'm ● **O'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan % da**

2023- yilda **savdo** tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibida eng katta ulushi chakana savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)ga to'g'ri keldi va **63,5 %** ni tashkil etdi. Ulgurji savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)ning ulushi **28,7 %** ni, avtotransport vositalarining ulgurji va chakana savdosi hamda ularni ta'mirlashning ulushi **7,8 %** ni tashkil qildi.

Savdo tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi, jamiga nisbatan % da



Tashish va saqlash tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati




↑ Hajmi, mlrd. so'm ● O'sish (kamayish) sur'ati, o'tgan yilga nisbatan % da


2023- yil yakunlariga ko'ra, **tashish va saqlash** tarmog'ining O'zbekiston Respublikasi YAIMidagi ulushi **5,6 %** ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash tarmog'ining qo'shilgan qiymati tarkibida eng ko'p ulushi avtomobil transportiga to'g'ri keldi va **52,7 %** ni tashkil etdi. Mazkur tarmoq umumiy qo'shilgan qiymatida quvur transportining ulushi **15,6 %**, temir yo'l transportining ulushi **9,1 %**, yordamchi transport faoliyatining ulushi **14,0 %**, havo transportining ulushi **8,6 %** ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi, jamiga nisbatan % da




Axborot va aloqa tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati



2023- yilda **axborot va aloqa** tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi **2,1 %** ni tashkil etdi. Mazkur tarmoq yalpi qo'shilgan qiymati tarkibida asosiy ulush aloqa xizmatlariga (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet tarmog'i va boshqalarga) to'g'ri keldi va **52,4 %** ni tashkil etdi. Tarmoqda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning qolgan **47,6** foizi axborot va aloqaning boshqa tarmoqlari (nashriyot faoliyati, kompyuter dasturlashtirish sohasidagi faoliyat, dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat, teleko'rsatuv va radio-eshittirish v.b.) hissasiga to'g'ri keldi.


Axborot va aloqa tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi, jamiga nisbatan % da




2023- yilda **axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlarining** mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi **1,9 %** ni tashkil etdi.

Tarmoqda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmining **57,2 foizi** aloqa xizmatlari, **24,6 foizi** kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar, **10,1 foizi** ma'lumotlarni joylashtirish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, Web-portallar, **4,3 foizi** dasturiy ta'minotni chiqarish, qolgan **3,8 foizi** kompyuterlar va aloqa uskunalari ta'mirlash xizmatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

AKT xizmatlarining yalpi qo'shilgan qiymati



2023- yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat



2023- yil yakunlari bo'yicha **kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari** tomonidan **516 106,3 mlrd. so'm** miqdorida qo'shilgan qiymat yoki iqtisodiyotdagi yalpi qo'shilgan qiymatning **51,2 %** i yaratilgan. Shundan **45,5 %** i qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, **10,9 %** i sanoat, **9,3 %** i qurilish tarmoqlari va **34,3 %** i xizmatlar sohasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari ulushi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **95,6 %**, qurilishda **77,0 %**, xizmatlar sohasida **40,4 %** va sanoatda **21,4 %** ni tashkil etdi.